

## ROBERT PINSKIYNING "JERSEY YOMG'IRI" SHE'RINING MORFOLOGIK TAHLILI

Farg'ona Politexnika instituti

Katta o'qituvchisi

Elvina Yagyayeva

[eyagyaeva@mail.ru](mailto:eyagyaeva@mail.ru)

Lingvistika (ingliz tili) 2 kurs magistranti

G'aniyeva Nigora Olimbekovna

[nigoraganieva77777@gmail.com](mailto:nigoraganieva77777@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola morfologiyaga keng qamrovli yondashibgina qolmay, uning tahlilini ham taqdim etadi. Ushbu tahlil Robert Pinskiyning "Jersey yomg'iri" she'ri orqali amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** morfologiya, morfologik tahlil, so'z turkumi, siltaktik vazifa.

**Abstract:** This article presents not only a comprehensive approach to morphology, but also an analysis of it. This analysis is done through the poem "Jersey Rain" by Robert Pinsky.

**Key words:** morphology, morphological analysis, vocabulary, syntactic task.

She'riyat insonning intim kechinmalarini dil torini chertadigan, ko'ngillarga orom baxsh etadigan, insonning xarakterini ochib beradigan eng badiiy o'ziga xos birlikdir.

Yuqorida "Jersey yomg'iri" she'ri ham o'shanday hissiyotlarga boy she'r bo'lib, uning morfologik tahlili ham she'rning o'zidek zavqli.

Avvalo, morfologik tahlil nima ekanligini bilib olaylik.

**Morfologiya** soʻzi yunoncha morphe — shakl va logos- taʼlimot soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, ushbu soha quyidagilarni oʻz ichiga oladi.

- 1) tilning morfologik qurilishi;
- 2) soʻz shakllari.

Birinchi maʼnosida obʼyektning anglatishi, ikkinchi maʼnosida tilshunoslikning shu obʼyektning oʻrganuvchi boʻlimini bildiradi. U shuningdek 3ta katta guruhga boʻlinadi:

- 1) mustaqil soʻz turkumlari;
- 2) yordamchi soʻzlar;
- 3) oraliqdagi soʻzlar (alohida olingan soʻzlar)

Morfologiya soʻz turkumlari, ularga xos grammatik maʼnolarni, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalar, bu kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi grammatik shakl va grammatik maʼnolar va sharhlarni oʻrganadi. Til tizimidan iborat boʻlganidek, uning Morfologiyasi ham oʻziga xos tizimni tashkil etadi. Oʻz navbatida, morfologik tizim ham oʻziga xos kichik tizimlardan tashkil topadi. Ulardan har birining mohiyati yoritilishi bilan, tilning morfologiyasi yaxlit holda, tizim sifatida oʻrganiladi.

Har bir soʻz turkumiga xos ichki tizim (tizimcha)larni shu turkumga xos morfologik kategoriyalar tashkil etadi. Morfologik kategoriyalar soʻz turkumiga xos maʼlum bir hodisaga oid umumiy va xususiy maʼnolar va bu maʼnolarni ifodalovchi soʻz shakllari birligidan iborat boʻladi. Ana shu soʻz shakllari va ularga xos umumiy va xususiy maʼnolar yoritilishi bilan muayyan morfologik kategoriyalarning mohiyati belgilanadi. Boshqacha aytganda, morfologik tizim ichidagi ichki tizimlardan birining mohiyati belgilanadi. Mas, feʼlning zamon kategori-yasi feʼl M.sida alohida tizimni tashkil etadi. Shuning uchun feʼlning zamonlariga nisbatan "feʼl zamonlari tizimi" degan ibora ham qoʻllanadi. Feʼlning zamon kategoriyasi, zamon tizimining mohiyati shundan iboratki, zamon shakllarining barchasi harakatning nutq vaqtiga (nutq momentiga) munosabatini bildiradi. Bu — zamon shakllarining barchasi uchun umumiy boʻlgan xususiyat. Shu bilan birga har bir zamonga oid feʼl shakli (shakllari) oʻziga xos xususiyatga ega. Mas, oʻtgan zamon shakllari

harakatning nutq vaqtigacha, hozirgi zamon shakllari harakatning nutq vaqtida, kelasi zamon shakllari harakatning nutq vaqtdan keyin bajarilishini bildiradi. Fe'l zamon shakllariga xos ana shu umumiy va xususiyliklar zamon kate-goriyasining , fe'l zamonlari tizimining mohiyatidir. Demak, fe'l turkumiga oid har bir morfologik kategoriyaning mohiyatini aniqlash bilan fe'lning morfologik tizimi yoritiladi.<sup>21</sup>

Endi she'r tahliliga keladigan bo'lsak, quyidagi she'rdan namuna keltirilgan.

The Jersey rain, my rain, soaks all as one:

It smites Metuchen, Rahway, Saddle River,

Fair Haven, Newark, Little Silver, Bayonne.

I feel it churning even in fair weather

To craze distinction, dry the same as wet.

In ripples of heat the August drought still feeds

Vapors in the sky that swell to smite the state --

The Jersey rain, my rain, in streams and beads

Of indissoluble grudge and aspiration:

Original milk, replenisher of grief,

Descending destroyer, arrowed source of passion,

Silver and black, executioner, font of life.

Albatta, ushbu she'r insonga biroz tushkunlik kayfiyatini bag'ishlaydi, chunki yomg'ir o'zi shunday, insonni o'y-hayollar og'ushiga ko'mib qo'yadi, insonni qilgan xatolarni eslashga majbur qiladi, o'tmish xotiralariga eltadi va qalbgga sovuq ham bo'lmagan, qaynoqlikka ham ega bo'lmagan iliq bir sokinlik bag'ishlaydi.

She'ring morfologik tahliliga ko'chadigan bo'lsak,

- The **Jersey** rain, my rain, soaks all as one:

---

<sup>21</sup> [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Jersey so'zi mustaqil so'z hisoblanadi. U atoqli ot so'z turkumiga mansub bo'lib, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasiga egadir (Jersey rain).

Ushbu so'z shahar nomini anglatadi va rain (yomg'ir) so'zi bilan mutanosiblikni hosil qiladi.

- The Jersey **rain**, my rain, soaks all as one:

Bu yerda **rain** ot so'z turkumiga mansub bo'lib, gapda ega vazifasida kelmoqda. Ushbu so'z ham mustaqil so'z turkumlari doirasiga kiradi.

- **The** Jersey rain, my rain, soaks all as one:

Ushbu she'r qatorida esa the aniq artiklini tahlil qiladigan bo'lsak, unda mustaqil so'z turkumlik vazifasi yo'q. U shunchaki aniqlovchi vazifada keladi va gapda tarjimaga ham ega bo'lmaydi, biroq ingliz tilida uning aniqlovchilik vazifasi aniq seziladi.

- I **feel** it churning even in fair weather.

Ushbu qatorda esa **feel** so'zi o'zbek tilida his qilmoq degan ma'noni anglatadi. Uning fe'llik darajasi esa uning morfologik tahlili anchagina keng ekanligini bildiradi.

Feel fe'li o'timli fe'llar qatoriga kirib, ushbu jumladagi vazifasi kesi, hisoblanadi.

- I feel it **churning** even in fair weather.

Quyidagi jumlada churning so'zi – chayqalayotgan deb tarjima qilinadi. Aslida fe'l so'z turkumiga mansub bo'lgan ushbu so'z bu kontekstda sifatdosh so'z turkumi vazifasida kelmoqda. Sintaktik vazifasi esa to'ldiruvchi hisoblanadi.

Ushbu gap tarjimasiga o'z e'tiborimizni qarataylik.

Men uning hattoki yengil havoda ham **chayqalayotganini** his qilaman.

Shunday qilib, yuqorida Robert Pinskiyning "Jersey yomg'iri" she'rining ma'lum bir parchasida morfologik tahlil amalga oshirildi.

Albatta, ushbu tahlil jarayoni o'zbek va ingliz tillarining morfologik qorishmasi orqali izohlandi va har bir so'zning sintaktik vazifasi, morfologik shakli tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar





1. Abdurahmonov X., Rafiyev M., Shodmonqulov D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. [Toshkent](#), "O'qituvchi", 1993 yil.
2. A'zamov S. Maktab grammatikasi va ilmiy grammatika xususida. "Til va adabiyot ta'limi", 1992 yil, 2-son, 32-33-bet.
3. Shamsiyeva M. "So'z turkumlarini sintaksis asosida o'rgatish". Ilmiy ishlar toplami. TDPI., 1991 yil, 18-31-betlar.
4. G'ulomov A., Ne'matov X. Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari. Metodik qo'llanma. T, 1992 yil.
5. G'ulomov A. Ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'quv-bilim faoliyatlarini aktivlashtirish. ADD., Toshkent, 1991 yil.
6. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil
7. I.Holmurodov. Ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 2-son, 6-9-betlar.